



Received: August 12, 2025  
Accepted: September 22, 2025  
Available online: September 25, 2025

## Hamidulla Boltaboyev

Filologiya fanlari doktori, professor  
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston  
Milliy universiteti  
Toshkent, O'zbekiston

## Hamidulla Boltaboyev

Doctor of Sciences in Philology, Professor  
National University of Uzbekistan named after  
Mirzo Ulugbek  
Tashkent, Uzbekistan  
E-mail: hbaltabaev@mail.ru  
ORCID iD: 0009-0007-7548-1573

### MAHMUDXO'JA BEHBUDIY VA TURKISTON JADIDCHILIK HARAKATI

### MAHMUDKHOJA BEHBUDI AND THE JADID MOVEMENT IN TURKISTAN

#### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolaning maqsadi – Turkiston jadidchilik harakatining yetakchilaridan biri, muftiy Mahmudxo'ja Behbudiyning ijtimoiy-siyosiy faoliyati, badiiy ijodi va ilmiy-adabiy qarashlari haqida muxtasar ilmiy ma'lumot berishdan iborat. Vazifalari – Behbudiyning XX asr boshlari Markaziy Osiyoning yangilanish harakatidagi o'rnini ko'rsatish; allomaning tarjimaiy holini birlamchi manbalar asosida ilmiy tizimga solish; hayoti va faoliyatining muhim sanalarini ko'rsatib, ularda muallifning bunyodkor shaxsi, yaratuvchanlik qobiliyati va mahoratini aniqlash; "Turkiston madaniy muxtoriyati loyihasi"ni milliy madaniyat tarixi va davlatchilik asoslari nuqtayi nazaridan tahlil qilish; ushbu tarixiy hujjatning Turkiston jadidchilik harakatidagi muhim o'rnini ko'rsatib berishdir. Maqolani yozishda tarixiy-qiyyosiy, qiyyosiy-tipologik va tavsifiy metodlardan foydalanildi. Uning natijalaridan Mahmudxo'ja Behbudiy ilmiy tarjimaiy holini yaratishda; publitsistik asarlarini tadqiq etib, ularni nashrga tayyorlashda; buyuk jadidchining siyosiy faoliyatiga doir tafsiliy maqola va tadqiqotlar yaratishda; XX asr boshlari O'zbekiston tarixi va o'zbek adabiyoti masalalariga doir monografiya, darslik va o'quv qo'llanmalarini tuzishda foydalanish mumkin.

**Kalit so'zlar:** jadidchilik harakati, ijtimoiy-siyosiy faoliyat, yangilanish, islohot, madaniy muxtoriyat, davlatchilik asoslari, bunyodkor shaxs, yetakchi, matbaa.

#### ABSTRACT

The purpose of this article is to provide a concise scholarly overview of the socio-political activity, literary creativity, and academic-literary views of mufti Mahmudkhoja Behbudi, one of the leading figures of the Turkistan Jadid movement. It aims to highlight Behbudi's role in the renewal movement of early 20th-century Central Asia, to systematize his biography on the basis of primary sources, to identify key dates in his life and work reflecting his constructive personality, creativity, and mastery, and to analyze the "Project of Turkistan Cultural Autonomy" from the perspective of national cultural history and the foundations of statehood, thereby showing the significant role of this historical document in the Turkistan Jadid movement. The study employs historical-comparative, comparative-typological, and descriptive methods. Its results can be used in compiling the scientific biography of Mahmudkhoja Behbudi, in researching and preparing his journalistic works for publication, in developing detailed articles and studies devoted to the great Jadid's political activity, and in writing monographs, textbooks, and teaching manuals on the history and literature of early 20th-century Uzbekistan.

**Key words:** Jadid movement, socio-political activity, modernization, reform, cultural autonomy, foundations of statehood, creative personality, leadership, printing press.

## KIRISH

Turkiston jaddidchilik harakatining yetakchilaridan biri, adib va jamoat arbobi,

pedagog va publitsist, muftiy va qozi Mahmudxo'ja Behbudiy Samarqand shahri yaqinidagi Baxshitepa qishlog'ida Behbudxo'ja Solihxo'ja o'g'li oilasida tug'ilgan. Otasi asli turkistonlik, Xoja Ahmad Yassaviy avlodlaridan, ona tomondan bobosi Niyozxo'ja xorazmlik bo'lib, XVIII asr oxirlarida Samarqandga ko'chib kelgan [Muin, 1923]. Yosh Mahmudxo'ja otasi Behbudxo'ja vafot etganidan so'ng (1894) tog'asi Mulla Odil Yaxshiboy o'g'lidan arab tili bo'yicha saboq olgan, uning qozixonasida mirza bo'lib ishlagan (1891-yildan), Samarqand madrasasida tog'asi Mulla Siddiqdan tahsil ko'rib, keyinroq Buxoro madrasalarida o'qigan. 1899-1900-yillari to'ng'ich farzandi vafotidan so'ng haj ziyoratini o'tagan, unga buxorolik ma'rifatchi Hoji Baqo yo'ldosh bo'lgan. Behbudiy ziyoratga Kavkaz – Istanbul – Qohira orqali borganini “Qasdi safar” asarida yozadi: “1318 sanayi hijriyasi tavofi Baytullohg'a ... borib edim. Muddati safarim 8 oydan ziyoda cho'zulub edi” [Behbudiy, 1914]. Ushbu manbadan ma'lum bo'lishicha, Misr va Istanbulda bir muddat yashagan. Qaytib kelgach, matbaayi Behbudiyaga asos solgan. 1903-904-yillari Moskva va Peterburgga borib, ta'lim va maorif tizimi bilan tanishgan. Safardan so'ng Behbudiy o'zining maslahati bilan ochilgan Halvoyi qishlog'ida S.Siddiqiy (1903) va Rajabamin qishlog'ida A.Shakuriyning usuli jadida maktabi (1905) uchun dastur va qo'llanmalar yozishga kirishadi. 1905-yildan Rusiya musulmonlar firqasining “Ittifoq” harakatida faol qatnashgan, 1906-yili Qozon, Ufa, Nijniy Novgorod shaharlarida bo'lgan. Keyinroq bu safar Moskva, Peterburg, Qozon shaharlari sayohatidan so'ngra amalga oshganini, savdo yarmarkasi munosabati bilan Rusiyaga borganini o'zining “Oyina” jurnalida yozadi [Behbudiy, 1914]. 1906-yil 23-avgustda Nijniy Novgorodda o'tkazilgan Rusiya musulmonlari qurultoyida Turkiston delegatsiyasining rahbari o'laroq Musulmon madaniyati to'g'risida nutq so'zlaydi [Pyaskovskiy, 1958]. Samarqandda “Behbudiya” kutubxonasi va qiroatxonasini tashkil qiladi, uning rayosati raisi sifatida Behbudiy, muovini N.Nazriddin o'g'li tayinlanadi (1908).

Turkistonga kelgan Rusiya musulmonlari va jadidchilik harakatining yetakchisi, “Tarjumon” gazetasining muharriri Ismoilbek G'aspirali va tatar ziyolisi Abdurashid Ibrohimbek bilan uchrashib, mamlakatni mustamlaka asoratidan saqlash, buning uchun yurtida keng avj olayotgan qarshilik harakatlarini Rusiya mustamlakachilariga qarshi qaratish lozimligini tushunib etdi. Bu haqda Rusiya davlat Dumasi vakili Sadri Maqsudiy bilan ham maslahatlashib oldi. Oradan bir necha yil o'tgach, Ismoilbek G'aspirali bilan yana Istanbulda uchrashadi. Turkistonning kelajagi haqidagi har ikki arbob qaroridan keyin Mahmudxo'ja Behbudiy jiddiy ravishda milliy-ozodlik ishlarida yanada faollashadi. “Samarqand” gazetasini 1913-yil 16-apreldan chiqara boshlaydi, shu yilning o'zidayoq “Behbudiya” matbaasini tashkil etadi. Gazeta yopib qo'yilgach, 20-avgustdan “Oyina” jurnalini ta'sis etib, uning bosh muharriri va noshiri sifatida faoliyat yuritadi [Andreyev, 1915].

Behbudiy 1914-yilning 9-mayidan yana safarga o'tlanadi: Bayramali, Ashxobod, Krasnovodsk kabi turkman shaharlaridan o'tib, Kaspiy dengizi orqali Odessaga keladi, Istanbul, Adirna kabi turk shaharlariga borib xalqning madaniy turmushi bilan tanishadi. So'ngra Quddusi sharif, Bayrut, Xubrun, Damashq, Qohira, Makka kabi arab mamlakatlarining yirik markazlaridan o'tib, yana Odessa

orqali Yevropaga qaytadi. Bu shaharlar davomida ko'rgan kechirganlari va ma'rifiy-ta'limiy sohadagi maslahatlari "Oyina" jurnalida davomli suratda berilib boriladi. Jurnal iqtisodiy tanglik va rus ma'murlarining qistovi bilan yopilgach, Mahmudxo'ja Behbudiy Kobud qozixonasida muftiy vazifasida ishlaydi (1916). So'ngra oradan bir yil o'tgach, "Zarafshon" shirkatini tashkil etib, uning faoliyatiga A.Shomansur, M.O'rinboy o'g'li, M.Shohmahmud o'g'li kabi ma'rifatparvarlar va taniqli adib Siddiqiy Ajziyni hamkorlikka chorlaydi. Bu shirkat faoliyatining yirik ishlardan biri "Hurriyat" gazetasining tashkil etilishidir (1917). Gazetaga dastlab 1917-yilning 15-aprelidan Mardonqul Muhammadzoda muharrir bo'lgan edi. Behbudiyning taklifi bilan gazetaning 27-sonidan Abdurauf Fitrat muharrirlikka jalb etiladi [Boltaboyev, 2007]. Shu yilning o'zidayoq "Nashri maorif" jamiyatini ta'sis etadi, bir qator xayriya tashkilotlarining ishlarida qatnashadi.

Xalq hayotini yaxshi bilgan Behbudiydan sho'rolar hukumati foydalanmoqchi bo'ladi. 1918-yildan Samarqand shahri Xalq maorifi komissari, Samarqand shahar Ijroiya qo'mitasining ikkinchi raisi o'laroq faoliyat ko'rsata boshlaydi. Aslida, bu Turkiston jadidchilik harakatining yo'l boshchisi uchun qo'yilgan tuzoq edi. Behbudiy Samarqand shahrini dunyoning kuchli madaniy markazlari qatorida bo'lishini istadi va 1919-yilning mart oyida Istanbul orqali Parijga borish uchun sheriklari bilan yo'lga chiqadi. Shu yilning 25-martida Shahrisabzda Qarshi begi navkarlari tomonidan qo'lga olinib, hibs qilinadi. Hibsda taxminan iyul oyining o'rtalariga qadar saqlanadi, bu voqeadan bexabar uning yaqinlari safarda degan tasavvur bilan yashaydilar va Qarshi begi Tog'aybek, uning xodimlaridan Nuriddin otaliq ishtirokida Mahmudxo'ja Behbudiy va uning sheriklari qatl qilinadi [Muin, 1921].

### ASOSIY QISM

Mahmudxo'ja Behbudiyning hayoti va faoliyati haqida uning hayotligi davrida yaratilgan asarlar juda kam. 1919-yildagi fojiali o'limidan so'ng dastlabki xabar 1921-yilda Hoji Muinning yuqoridagi maqolasi orqali yuzaga chiqdi. Keyinroq Hoji Muin allomaning faoliyati haqida kengroq ma'lumot beruvchi maqolasini o'zi muharrirlik qilgan "Zarafshon" gazetasida e'lon qildi [Muin, 1923]. Deyarli hamma behbudiyshunoslar mana shu maqola orqali uning hayot yo'li haqida ma'lumot oldilar. Sho'ro zamonida Behbudiy faoliyatigina emas, uning ismi ham qatag'on etilgani ma'lum. Shunday bo'lsa-da, Behbudiy asarlarini tilga olib, uning faoliyati haqida dastlabki tanituv maqolalari 1980-yillarning oxirlaridan matbuotda ko'rina boshladi. Bu haqda behbudiyshunos olim B.Qosimov ma'lumot berib, "Solih Qosimov [Qosimov, 1997], Ahmad Aliyev, Naim Karimov [Karimov, 2013], Sirojiddin Ahmedov [Behbudiy, 2018], Sherali Turdiyev [Turdiyev, 1989] va bugungi yosh tadqiqotchilardan Halim Saidov, Normurod Avazov, Zebo Ahrorova" ishlari ahamiyatli ekanini ta'kidlaydi [Qosimov, 2022].

Professor B.Qosimov Mahmudxo'ja Behbudiy faoliyati va asarlarini izchil o'rgangan olimlardan biridir. Mahmudxo'ja Behbudiyning vafoti Turkiston ahliga ikki yil o'tgach ma'lum bo'ladi, olimning ("Maslakdoshlar" kitobida "Karvonboshi" maqolasi (1994) [Qosimov, 1997], "Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik"

[Qosimov, 2002]), “Milliy uygʻonish davri oʻzbek adabiyoti” [Qosimov va boshq., 2004] kabi darslik va qoʻllanmalarida alohida qismlar yozilgan hamda “Tanlangan asarlar”ining 2-jildiga “Mahmudxoʻja Behbudiy” portreti kiritilgan [Behbudiy, 1999; Qosimov, 2022], M.Behbudiy “Tanlangan asarlar”ini nashrga tayyorlagan va bu kitob 1997-yildan soʻng olti marta qayta nashr etilgan [Qoʻchqor & Qosimov, 1997]. Sanʼatshunos olim S.Ahmad M.Behbudiy “Tanlangan asarlar”ini 2 jildda nashrga tayyorlab, 2018-yili chop ettirdi va unga soʻzboshi sifatida “Behbudiyning tanish” tadqiqotini ilova qildi [Ahmad, 2018]. Ushbu nashr Behbudiyning asosiy asarlarini oʻzida qamrab olish bilan birga bir qator tarixiy hujjatlar va xatlarni, uning zamondoshlarining xotiralari, adib hayoti sanalari va asarlari, alloma asarlarida qayd etilgan ismlar izohi va lugʻatlar bilat boyitilgani uchun hozirga qadar eʼlon qilingan nashrlar orasida Mahmudxoʻja Behbudiy ijodiy faoliyatini aks ettiruvchi nisbatan toʻla manba sifatida qoʻllanilmoqda.

Rusiyaning uzoq vaqt puxta ishlangan mustamlakachilik rejasi XIX asrning 2-yarmiga kelib, oʻz natijasini berdi. Qonli bosqinchilik urushlari natijasida 1876-yili Turkiston general-gubernatorligi tashkil topdi va Markaziy Osiyodagi milliy harakatlar ayovsiz bostirildi [Abdullayev va boshq., 2019]. Buxoro va Xiva xonliklarining yoʻli Turkistonga nisbatan boshqacharoq kechdi, ular vassal, yaʼni nomustaqil holda yashashga majbur boʻldilar. Lekin bu bilan ozodlik harakatlari tinmadi: Poʻlatxon qoʻzgʻaloni, Yetimxonlar harakati, Sultonxon toʻra isyoni – bular barchasi Madali eshondek tariqat pirining qoʻlga qurol olib, lashkar toʻplashiga majbur qildi. Biroq bu harakatning qonga botirilishi natijasida Turkiston ziyolilari endi kuch, qurol bilan emas, maʼrifat bilan jaholatni yengmoqchi, huquqini talab qila oladigan xalqni tarbiyalashni maqsad qilib oldilar. Oʻsha yillari Turkistonda islohotchilik va birlashish gʻoyalarining eng izchil tarafdori taraqqiyparvar jadidlar edilar. Turkiston jadidlari Mahmudxoʻja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xoʻjaev, Munavvar Qori, Abdulla Avloniy, Abduqodir Shakuriy, Polvonniyoz Yusupov va boshqalar mustamlakachilikning biqiy va tor sharoitida johillik va murosasizlik hukm surgan bir paytda maʼnaviy uygʻonishni kutish bemaʼnilik va goʻllik ekanini yaxshi anglab yetgan edi” [Abdullayev va boshq., 2019]. Toshkent, Samarqand, Qoʻqon, Andijon va Urganchda muftiy va ulamolar maʼrifatni qurol qilgan boʻlsalar, bir qancha millat fidoyilari huquqiy taʼlimni rivojlantirib, “Haq olinur, berilmas” (Mahmudxoʻja Behbudiy shiori) yoʻlini tanladilar. Mahmudxoʻja Behbudiy mana shunday ilgʻor kurashchan jadidlarning oldingi qatorida (1875-1919) faoliyat koʻrsatdi.

M.Behbudiy 1903-yildan “Turkiston viloyatining gazetisi”da maqola va tarjimalari bilan qatnasha boshladi, 1903-yilgi Rusiyaning markaziy shaharlariga sayohati natijasida mustamlaka siyosatining mohiyati bilan yaqindan tanishdi, ularga qarshi qalam bilan kurashish yetarli emasligini anglab etdi. Siyosiy hayotdagi faol ishtiroki natijasida 1905-yilning 23-avgustida ochilgan Rusiya musulmonlarining Iqurultoyida qatnashdi. Tarixiy manbalar shuni koʻrsatadiki, 1905-yilning 17-oktabrida Rusiya podshohi “Davlat tartibini rivojlantirish” haqidagi manifestga imzo chekdi, unga koʻra barcha Rusiya fuqarolariga nisbatan erkinliklar berilishi haqida soʻz boradi. Chunki II Duma tarqatib yuborilib, shu yilning 3-iyunida saylov haqida yangi

qonun qabul qilinadi, unga ko'ra chekka o'lkalardagi mahalliy aholining saylovdagi ishtiroki jiddiy kamaytiriladi. Bundan norozi bo'lgan Turkiston jadidlari Musulmon fraksiyasidan o'rin olish uchun faollashadi, lekin a'zolari 36taga yetkazilsa-da, ularning aksariyati tatar millatiga mansub kishilar edilar. Turkistonliklarning ham "ovozi" o'laroq tatar, yahudiy millatiga mansub kishilar saylovlarda ishtirok etishar edi. Bu vaqtda Behbudiy Samarqand shahrida qozixona ishlari mudiri va shahar bosh muftiysi vazifasini bajaradi. Samarqand muftiysi Mahmudxo'ja Behbudiy Rusiya III davlat Dumasini Musulmon fraksiyasi uchun "Turkiston madaniy islohoti loyihasi"ni tayyorladi (1907). Chunki, Rusiya davlat Dumasining Musulmon fraksiyasi "Rusiya musulmonlari ittifoqi" dasturini ishlab chiqish va uni II Dumaga taqdim etish bilan mashg'ul ediki, M.Behbudiy o'z loyihasini mana shu hujjatga asos bo'lishini ko'zda tutib yaratgan edi. I.G'aspiralining shaxsiy arxividan topilgan bu loyiha Dumada ko'rilgani yoki nashr bo'lgani haqida ma'lumotga ega emasmiz. Faqat uni I.G'aspiralining farzandlari taniqli jadidshunos olim Temur Xo'ja o'g'liga taqdim etgani, olim uning matnini turkcha tarjimasi bilan nashr etgani [Kocaoğlu, 2002] tufayli ushbu manbani o'qib, tahlil qilish imkoniyati tug'ildi.

Loyiha matni 9 bob, 4 qo'shimcha bo'lim va 25 banddan iborat bo'lib, u tartib bo'yicha 1-dan 25-raqamga qadar joylashtirilgan. Loyiha "III Dumaning ehtiromli Musulmon fraksiyasi g'ayratli vakillarining majlis ahliga murojaat bilan boshlanadi. Uning Kirish matnida yozilishicha, Turkiston uchun II Dumaga yozilgan bu hujjat Duma tarqatib yuborilgach, qabul etilmagan. Shuning uchun muallif uni III Duma qatnashchilariga Rusiyaning 20 million musulmon xalqi nomidan murojaat bilan boshlaydi va hujjatga "1907-sana, noyabr. Samarqanddan ittifoqi muslimin idora markaziyasi a'zolaridan muftiyi dor ul-qazo Samarqandiy Mahmudxo'ja Behbudxo'ja o'g'li" deb imzo qo'ygan [Kocaoğlu, 2002].

Hujjatning 1-bo'limi Duma xususida bo'lib, uning birinchi moddasida davlat Dumasini uchun Turkiston aholisi nomidan "islomiyaga mutanosib vakil" saylanishi aytilgan, chunki Turkiston ahlining aksariyati mahalliy musulmonlardir. Keyingi moddalarda hukumat ishlariga va majlislariga Turkiston aholisining adadidan kelib chiqib o'rin ajratilishi va jalb qilinishi ko'zda tutilgan. 2-bo'limda Rusiya musulmonlarning raisi o'z vazifasini ijro etishi uchun Peterburg shahrida "mahkamayi islomiya" barpo bo'lishi va uning rahbari musulmonlar tarafidan saylanishi lozimligi aytilgan. 3-bo'lim Turkiston idorasi xususida bo'lib, "Sirdaryo, Farg'ona, Samarqand, Semirechenskiy-Yettisuv, Zakaspiyi movarayi Bahri Hazar oblastlaridan iborat Turkiston o'lkasiga bir idorayi ruhoniya va doxiliya barpo bo'lishi" va uning mahkamasi Toshkent shahridan boshqarilishi so'ralgan. So'ngra Turkiston idorayi doxiliya tarkibi, uning viloyatlardagi sho'balari xususida so'z boradi. 4-bo'lim "Idorayi ruhoniya va doxiliya a'zolarining xatti-harakati" deb nomlanib, unda mahkama ishiga mutasaddi bo'lgan shayx ul-islom va oxund vazifalari belgilanadi va mazhabchilik ayirmasi, ya'ni "boshqa vajhg'a sunniy va shi'a orasida farq bo'lmasligi" uqtiriladi. 5-bo'limda bu idora tasarrufidagi ishlar: mahalliy rus mahkamalariga savolnoma va raddiya (protest) berish va "xalq huquqini hukumati mahalliyadan talab etmoq va himoya qilmoq" deb belgilangan. Bu idora meros-valodat (tug'ilish), usubat-



hazonat (bola boqib olish va tarbiyalash), nikoh-taloq, ro'zg'or va oila ishlari, ko'char va ko'chmas mulk masalalari va nomus da'volari bilan mashg'ul bo'lishi ko'zda tutilgan. Mazkur bo'limning keyingi moddalarida masjid, madrasa, maktab, vaqf, vasiyat ishlariga mas'ul shaxslar, ulardagi mutavalli (hisobchi) va nozirlar faoliyati, diniy va dunyoviy tahsil tartibi maktab va madrasa dasturlarida aks etishi lozimligi ta'kidlangan. Turkiston qozilari "shar'iy, urfiy, tijoriy va zamoniy ishlarni so'ramoqlari uchun dastur ul-amal va qonunnomalar tasnif etmoq" lozimligi bayon qilingan. "Urf va rasm nomi bilan joriy odoti qabihalarni tadrijiy yo'q bo'lishig'a sa'y va tadbir qilmoq"ligi aytilgan. Ayni masalada Behbudiyning bir qator maqolalari ham e'lon qilingan bo'lib, unda to'ylardagi ortiqcha hasham va isrofgarchiliklar, o'lim munosabati bilan o'tkaziladigan noshar'iy marosimlar haqida tanqidiy fikr yuritgan. Barcha maktablar xoh u ruhoni bo'lsin, xoh milliy va doxiliy bo'lsin, ularga ishga kiradigan o'qituvchilar va tahsil oladigan o'quvchilar uchun imtihonlarning belgilanishi, maktabni bitirgach, shahodatnoma berish va ularni tartibli ravishda bajarilishi uchun nazoratlar o'rnatish talabi bayon qilingan. Yer-suv masalalarini hal etishda Turkistonning doxiliy maishiy hayotini yaxshi bilgan kishilarning mutasaddi bo'lishi, bu borada qonunlar chiqarib, unga amal qilinish ta'minlanishi ham so'ralgan.

Hujjatning 6-bo'limi "Idorayi ruhoniya va doxiliya mas'uliyati" haqidadir. Idora, sho'balari va ijroiya mahkamalar ishlari bo'yicha dor ul-qazo, rais va a'amlar, ularning xiyonat va jinoyatlari doimiy suratda taftish qilinib turiladigan darajada mahkamaning birinchi ishi ekanligi anglatilgan. 7-bo'lim "Turkiston qozilari xususida" bo'lib, ularning saylanish tartiblari, o'z kasbiga munosibliklari kabilar, bularni iste'komi va azli (ishga tayin etilishi va bo'shatilishi) ham mazkur idora ixtiyorida ekanligi alohida qayd etilgan. Bir qozi ishidan norozi kishi to'rt qozidan iborat hay'atga murojaat etishi, qozilar tomonidan yoziladigan hujjat ishlari, hukmnoma va qayd daftarlari turkcha (o'zbekcha) yozilishi talab etilgan. Turkiston hududida umumiy tijoratxonalar, ajnabiylar (chet elliklar) da'vosi, g'ayridinlar bilan bo'ladigan mojarolar ham qonunga asoslangan holda qonunnomalarga muvofiq ish yuritilishi, harakat va hukm qilinishi ko'zda tutilgan. Hujjatning 8-bo'limi "joni va badkorlar" (jinoyatchi va axloqsizlar)ga bag'ishlangan bo'lib, Turkiston xalqidan uch marotabadan ortiq o'g'rilik va boshqa jinoyatlarni sodir etganlar Turkiston hududidan muvaqqat (ma'lum muddatga) yoki muabbad (bir umrga) haydaliishi aytib o'tilgan. G'ayriturkistonliklardan sodir qilinadigan gunohlarni ham birinchi martaba bo'lsa, mahalliy idora vakillari, takror bo'lsa, yuqoridagi moddaga muvofiq qatl yoki katta da'volarga hukm etilishi lozim. Loyihaning so'nggi 9-bo'limi "Turkiston yahudiylari va ajnabiylari" deb nomlanib, Turkiston hududida qonun barchaga barobar ekanligi, ular bilan sodir bo'ladigan mojaro va savdolar qonun doirasida amalga oshirilishi, g'ayriturkistonliklar uchun ham mahalliy qozi va idoralar tomonidan belgilangan qonunlarga rioya etilishi, bular amalga oshmagan taqdirda ularga ko'riladigan choralar ham Turkiston qazoyi mahkamalarida amalga oshirilishi so'ralgan. Bu borada so'nggi moddada shunday yozilgan: "Xorijiya mamlakatlari va ichkari Rusiyadan kelaturgon mazkur mazhablarga tobe kishilarni turkistonlilarga bor da'vo va ishlari Idorayi ruhoniya va doxiliya va Turkiston qazoyi mahkamalariga so'ralsin" [Bekhbudi,

2023].

(1), “Vaqlar xususida” (2), “Umumiy maktablar” (3) va “Suv va erlar xususida” (4)dir. Bu qo‘shimcha qilingan masalalar asosiy hujjatda bayon qilingan moddalarning ijrosi uchun ko‘rsatmalar bo‘lib, uning maorif tizimiga tegishli qismini keltiramiz: “Rusiya’ga umumiy o‘qituv masala va moddasi Turkistonni musoviyayi mushtamil (tenglikni o‘z ichiga olgan) bo‘lsin; Turkiston maktab va madrasalari hukumat nazoratida bo‘lsin; Umumiy o‘rta va oliy maktablarga musulmonlardan komissiya tayinlansin. Rus harfi musulmon maktabiga jabriy bo‘lmasin” [Behbudi, 2023].

Ko‘rinadiki, Mahmudxo‘ja Behbudiy tomonidan tavsiya etilgan madaniy islohotlar loyihasi faqat madaniy hayot va tadbirlar doirasi bilan cheklanmagan, u turkistonliklar hayotining barcha muhim jabhalarini qamrab olgani bilan xarakterlanadi. Hujjatda Turkiston aholisiga nisbatan milliy farqlanish, din va mazhab ayirmalaridan qat’i nazar ularni “turkistoniylar” deb atalishi, Turkiston aholisi uchun chiqarilgan qonunlarga barcha turkistoniylar amal qilishi lozimligi bir necha o‘rinlarda ta’kidlangan. Shu bilan birga, Behbudiy IV-davlat Dumasining musulmon fraksiyasi faoliyatida qatnashgan. 1917-yildan Samarqand shahar Dumasining a’zoliciga saylangan.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning siyosiy faoliyati bilan birga publitsistika va dramaturgiya sohasiga qo‘l urganini alohida ta’kidlash zarur. Mamlakatdagi davriy nashrlar bilan birga “Sho‘ro”, “Vaq” singari Rusiya hududida chiqayotgan jurnallarda maqolalari bosilib turdi, ayrim nashrlar esa “Oyina”dagi maqolalarni qayta ko‘chirib bosish orqali uning tarqalish geografiyasini kengaytirdi. 1911-yili o‘zbek dramaturgiyasining qaldirg‘och asari “Padarkush yoki o‘qimagan bolaning holi” yozildi. Oradan ko‘p o‘tmay drama Toshkentda Kolizey binosida Abdulla Avloniy va Ubaydulla Xo‘jaev tomonidan sahnalashtirildi. Bu asar 1913-yili nashr etilish bilan birga dramani Kavkaz o‘lkalari sahnalarida qo‘yish uchun ruxsat olingan. 1914-yilda “Padarkush” professional rejissyor A.Askarov tomonidan sahnalashtirilib, “Turon” teatr truppasi mana shu asar bilan o‘zining birinchi mavsumini boshlagan.

Noshir va publitsist sifatida “Samarqand” (1913) gazetasi va “Oyina” (1914-1915) jurnaliga asos solgan, 200dan ortiq maqola va ishlar muallifi sifatida tanilgan. Bundan tashqari, “Hurriyat” gazetasi bevosita Behbudiyning tashabbusi bilan ochilgan bo‘lib, unga taniqli adib va olim Abdurauf Fitrat jalb qilingan (1917-1918).

1917-yildan Behbudiy Turkiston muxtoriyati ishlariga tortilib, uning norasmiy noziri va Toshkentdagi Millatlar komissiyasiga a’zo sifatida kiritildi. Ma’lumki, Turkiston muxtoriyati Rusiya hukmdorlari tomonidan o‘qqa tutilgach, uning ko‘p faollari Onado‘li (hozirgi Turkiya)dagi “Ittihad va taraqqiy” firqasiga a’zo bo‘ldilar. Munavvar Qori ushbu firqaning “Milliy ittihad” maxfiy tashkilotini tuzadi va uning faol a’zolari ro‘yxatida Behbudiy ham bor edi.

1919-yili Behbudiyning Qarshi begi tomonidan qatl etilishi Turkiston ziyolilarining nafratiga sabab bo‘ldi. Qatl tafsilotlari 1921-yili ma’lum bo‘lgach, u haqda Abdurauf Fitrat, Sadridin Ayniy [Ayniy, 1922], Hoji Muin, Cho‘lpon va Vadud Mahmudning qayg‘uli she’r va maqolalari e’lon qilindi.

1923-yili Toshkentdagi Rahimiya qizlar maktabiga Behbudiy nomi berildi, 1929-yildan 1936-yilga qadar Qarshi shahri Behbudiy nomi bilan atalgan.

So'nggi yillarda Behbudiy hayoti va uning sa'y-harakatlari xususida bir qator mahalliy va xorij olimlari, jumladan, I.G'afurov [G'afurov, 1994], N.Karimov [Karimov, 2008], I.Baldauf [Baldauf, 2024], H.Boltaboyev [Boltaboyev, 2024] tomonlaridan muhim tadqiqotlar olib borildi.

## XULOSA

XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda kechgan milliy uyg'onish harakatlari mustamlaka holatidagi o'lkalarining o'zligini anglashida, o'z ona tilida yaratilgan ma'naviy qadriyatlarini tanishida jiddiy qadam bo'ldi. Xalq ma'naviy dunyosining o'ziga xos oynasi sanalgan badiiy adabiyot ham ayni shu yillari milliy shakllanish davriga qadam tashladi. Ammo adabiyot hali iqtisodiy va siyosiy hayotda yuz bergan barcha o'zgarishlarni qamrab olishga ulgurmadi. Shuning uchun ham XX asr boshlarida jadid adabiyotining shakllanish omillari haqida fikr yuritilar ekan, o'lkada kechgan til mujodalasidan ayri holatda muayyan maqsadga erishib bo'lmaydi. Shunga qaramay, taraqqiyparvar ziyolilar bu "til siyosati"ning istiqbollari ham yaxshi tushunib, imkon qadar turli xil lahja va shevalarda aks etayotgan turk tilini rasmiy idora tili sifatida qabul etilishini ham talab qilganlar. Xususan, Turkiston jadidlarining yo'l boshchilaridan muftiy Mahmudxo'ja Behbudiy 1908-yili rus ma'murlariga murojaat etib, Turkiston musulmonlari nazorati Kengashiga muxtor ma'muriyat huquqini talab qilarkan, masalaning ana shu jihatiga e'tibor qaratgan: "Turkistonning musulmon aholisi, asosan, turkiyda so'zlashadi. Janubiy tumanlarda esa, yuz mingga yaqin forsigo'y aholi bor. Shunga qaramay ular ham turk tilini yaxshi biladilar. Turkistonlilar o'rtasida tashqi ko'rinishi, dini va tilida farqi yo'q, yolg'iz ularning istilohida shahar aholisi sartlar deb ataladi, qishloq aholisi esa, ko'chmanchi, qirg'iz, qozoq bo'lishi mumkin. Din-imon, urf-odatlar, yurish-turishlariga kelsak, ularni deyarli bir-biridan ajtarmaymiz" [Behbudiy, 1908]. Bu ma'lumotdan kelib chiqadigan haqli talab o'lkada rasmiy idora tilini "sart tili" deb e'lon etilishi bilan uni hal etilgan deb qabul qilindi. Hech bir milliy asosi bo'lmagan sart tilini rasmiy til sifatida targ'ib etishda rus ma'muri N.Ostroumov tahririda chiqqan "Turkiston viloyatining gazetasi" zo'r berib tashabbus ko'rsatgan bo'lsa, uning qarshisida turgan "jadid matbuoti" va ro'znomalar xalqning asosiy talablarini ifoda qilmoqda edi. Shuni ham unutmaslik kerakki, o'lkada adabiyotshunoslikning yoyilishida ayni mana shu 1905-yildan keyin faoliyati kengaygan "Taraqqiy", "Xurshid", "Shuhrat", "Osiyo", "Buxoroyi sharif", "Turon", "Samarqand", "Oyina", "Al-Isloh", "Sadoyi Turkiston", "Sadoyi Farg'ona" va boshqa vaqtli matbuot xizmatining ahamiyati katta. Mahmudxo'ja Behbudiyning noshirlik va muharrirlik faoliyatiga nazar tashlaganda ham nafaqat "Samarqand" gazetasi va "Oyina" jurnali, balki butun Turkiston matbuotida faol qatnashganini, biri yopib qo'yilgan noshirlik va matbaa idoralarining yangisini ochishga bo'lgan harakatlarini doimiy suratda erk va mustaqillik uchun harakat qilganini ko'rish mumkin.



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullayev, R., Rahimov, M., Rajabov, Q. (Muhr.). (2019). *O'zbekiston tarixi (1917–1991-yillar): O'zbekiston 1917-1939-yillarda* (1-k.). Toshkent: «O'zbekiston» NMIU.
2. Ahmad, S. (2018). *Ikki imperiya asoratida* (2 jildli). Toshkent: Info Capital Group.
3. Andreyev, G. (1915 god 17 sentyabrya). Samarkandskiy zhurnal «Oyna» i yego redaktor-izdatel' Makhmud Khodzhi Begbudi. *Turkistanskiye vedomosti*.
4. Ayniy, S. (1922-yil 25-mart). Behbudiy hazratlari to'g'risida xotiralarim. *“Zarafshon” gazetasi*, 32.
5. Baldauf, I. (2024). Mahmud Kho'ja Behbudiy and Oyna: Bridging Samarkand and the world. T.Xo'jao'g'li (Mas. muhr.), *“Jadidlar: milliy o'zlik, istiqolol va davlatchilik g'oyalari” xalqaro konferensiya materiallari* da (B. 73–84). Toshkent: Yosh kuch.
6. Behbudiy, M. (1908). Turkiston idorasi. *“Sho'ro”*, 23, 720.
7. Behbudiy, M. (1914). Qasdi safar. *“Oyina” jurnali*, 31.
8. Behbudiy, M. (1999). *Tanlangan asarlar* (B.Qosimov (Nashr. tayyorl.), 2-nashr). Toshkent: Ma'naviyat.
9. Behbudiy, M. (2018). *Tanlangan asarlar* (S.Ahmedov (Tuzuv.), 2 jildli). Toshkent: Akademnashr.
10. Bekhbudi, M. (2023). *Proyekt kul'turnoy avtonomii Turkistana* (Sh.Kamoliddin (Perevod.), T.Khjoaglu). Tashkent: Fan ziyosi.
11. Boltaboyev, H. (2007). *Fitrat va jadidchilik*. Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti.
12. Boltaboyev, H. (2024). Jadidchilik Uchinchi Renessansning milliy poydevori sifatida. T.Xo'jao'g'li (Mas. muhr.), *“Jadidlar: milliy o'zlik, istiqolol va davlatchilik g'oyalari” xalqaro konferensiya materiallari* da (B. 90–96). Toshkent: Yosh kuch.
13. Karimov, N. (2008). *XX asr adabiyoti manzaralari* (1-k.). Toshkent: O'zbekiston.
14. Karimov, N. (2013). *Adabiyot va tarixiy jarayon*. Toshkent: Mumtoz so'z.
15. Kocaoglu, T. (2002). *Türkistan'da yenilik hareketleri ve ihtilaller, 1900-1924: Osman Hoca anısına incelemeler*. Haarlem: SOTA.
16. Muin, H. (1921-yil 28-mart). Marhum Behbudiy va rafiqlarining shahid bo'lg'anliklari va alar tomonidan yozilgan vasiyatnoma. *“Mehnatkashlar tovushi” gazetasi*.
17. Muin, H. (1923-yil 25-mart). Mahmudxo'ja Behbudiy. *“Zarafshon” gazetasi*.
18. Pyaskovskiy, A.V. (1958). *Revol'yutsiya 1905-1907 godov Godova v Turkistane*. Moskva: Izdatel'stvo Akademii Nauk SSSR.
19. Qo'chqor, U., & Qosimov, B. (Muhr.). (1997). *Mahmudxo'ja Behbudiy: Tanlangan asarlar*. Toshkent: Ma'naviyat.
20. Qosimov, B. (1997). Karvonboshi. U.Qo'chqor, & B.Qosimov (Muhr.), *Mahmudxo'ja Behbudiy: Tanlangan asarlar* da (B. 5–38). Toshkent: Ma'naviyat.
21. Qosimov, B. (2002). *Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik*. Toshkent: Ma'naviyat.
22. Qosimov, B. (2022). Mahmudxo'ja Behbudiy. *Tanlangan asarlar* da (2-k., B. 292–333). Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU.
23. Qosimov, B., Yusupov, Sh., Dolimov, U. (2004). *Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti*. Toshkent: Ma'naviyat.
24. G'afurov, I. (1994-yil 6-may). Amir nega Behbudiya qo'l bermadi?. *“O'zbekiston adabiyoti va san'ati” gazetasi*.

## REFERENCES

1. Abdullayev, R., Rahimov, M., & Rajabov, Q. (Eds.). (2019). *History of Uzbekistan (1917–1991): Uzbekistan in 1917–1939* (Vol. 1). Tashkent: National Publishing House of 'Uzbekistan'.
2. Ahmad, S. (2018). *Under the yoke of two empires* (2 vols.). Tashkent: Info Capital Group.
3. Andreev, G. (1915, September 17). The Samarkand journal 'Oyna' and its editor-publisher

- Mahmud Khodji Behbudi. *Turkistan Gazette*.
4. Ayniy, S. (1922, March 25). My memories of the revered Behbudi. *Newspaper of 'Zarafshon'*, 32.
  5. Baldauf, I. (2024). Mahmud Khoja Behbudiy and Oyna: Bridging Samarkand and the World. In T.Khojaogli (Ed.), *Proceedings of the International Conference on 'Jadids: Ideas of National Identity, Independence, and Statehood'* (pp. 73–84). Tashkent: Young Power.
  6. Behbudi, M. (1908). The administration of Turkistan. *Soviet*, 23, 720.
  7. Behbudi, M. (1914). The purpose of the journey. *Journal of 'Oyina'*, 31.
  8. Behbudi, M. (1999). *Selected works* (B.Qosimov (Comp.), 2nd ed.). Tashkent: Spirituality.
  9. Behbudi, M. (2018). *Selected works* (S.Ahmedov (Comp.), 2 vols.). Tashkent: Akademnashr.
  10. Behbudi, M. (2018). *Selected works* (S.Ahmedov (Comp.), 2 vols.). Tashkent: Akademnashr.
  11. Boltaboyev, H. (2007). *Fitrat and Jadidism*. Tashkent: National Library of Uzbekistan Publishing House named after Alisher Navoi.
  12. Boltaboyev, H. (2024). Jadidism as the national foundation of the Third Renaissance. In T.Khojaogli (Ed.), *Proceedings of the International Conference on 'Jadids: Ideas of National Identity, Independence, and Statehood'* (pp. 90–96). Tashkent: Young Power.
  13. Gafurov, I. (1994, May 6). Why didn't Amir shake hands with Behbudi?. *Newspaper of 'Literature and Art of Uzbekistan'*.
  14. Karimov, N. (2008). *Landscapes of 20th-century literature* (Vol. 1). Tashkent: Uzbekistan.
  15. Karimov, N. (2013). *Literature and historical processes*. Tashkent: Classical Word.
  16. Kocaoğlu, T. (2002). *Reform movements and revolutions in Turkistan, 1900–1924: Studies in memory of Osman Hoca*. Haarlem: SOTA.
  17. Muin, H. (1921, March 28). The late Behbudi and his wife' martyrdom and the testament they wrote. *Newspaper of 'Voice of the Workers'*.
  18. Muin, H. (1923, March 25). Mahmudkhodja Behbudi. *Newspaper of 'Zarafshon'*.
  19. Pyaskovskiy, A.V. (1958). *The revolution of 1905–1907 in Turkistan*. Moscow: Publishing House of the Academy of Sciences of the USSR.
  20. Qochqor, U., & Qosimov, B. (Eds.). (1997). *Mahmudkhodja Behbudi: Selected works*. Tashkent: Spirituality.
  21. Qosimov, B. (1997). Caravan leader. In U.Qochqor, & B.Qosimov (Eds.), *Mahmudkhoja Behbudi: Selected Works* (pp. 5–38). Tashkent: Spirituality.
  22. Qosimov, B. (2002). *National awakening: Courage, enlightenment, devotion*. Tashkent: Spirituality.
  23. Qosimov, B. (2022). Mahmudkhoja Behbudi. In *Selected Works* (Vol. 2, pp. 292–333). Tashkent: National Publishing House named after Gafur Gulom.
  24. Qosimov, B., Yusupov, Sh., & Dolimov, U. (2004). *Uzbek literature of the national awakening period*. Tashkent: Spirituality.